



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

TALABALARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY INTELLEKTNING O'RN VA AHAMIYATI

Raxmonaliyeva Mazluma Farrux qizi

Namangan Davlat Universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya.

Ushbu maqolada elektron ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotiga, xususan, talaba-yoshlarga kuchli axborotiy ta'sir ko'rsatayotgani, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar oqimini kuzatish jarayonida talabalar global axborot makonining faol ishtirokchisiga aylanib, turli mediakultural muhitlarning ta'sirini boshdan kechirayotgani, mazkur holat ingliz tili o'qitish jarayonida mediakompetentlikni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirayotgani, chunki ingliz tili global media makonining asosiy kommunikatsiya vositasi hisoblanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: virtual olam, elektron ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i, global axborot makoni, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar, abstrakt intellekt, mexanik intellekt, ijtimoiy intellekt.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Рахмоналиева Мазлума Фаррух кизи

Наманганский государственный университет, базовый докторант

Аннотация.

В данной статье рассматривается тот факт, что стремительное развитие электронных СМИ и Интернета оказывает сильное информационное воздействие на жизнь общества, особенно на студентов и молодежь; что в процессе отслеживания новостного потока в социальных сетях студенты становятся активными участниками глобального информационного пространства и испытывают влияние различных медиа- и культурных сред; и что эта ситуация еще больше усиливает необходимость развития медиакомпетенции в процессе обучения английскому языку, поскольку английский язык считается основным средством коммуникации в глобальном медиапространстве.

Ключевые слова: виртуальный мир, электронные СМИ, Интернет, глобальное информационное пространство, социально-коммуникативные компетенции, абстрактный интеллект, механический интеллект, социальный интеллект.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF SOCIAL INTELLIGENCE IN DEVELOPING STUDENTS' MEDIA COMPETENCE

Rakhmonaliyeva Mazluma Farrux qizi

Namangan State University, PhD student

Abstract.

This article discusses the fact that the rapid development of electronic media and the Internet has a strong information impact on the life of society, especially on students and young people, that in the process of following the flow of news on social networks, students become active participants in the global information space and experience the influence of various media and cultural environments, and that this situation further strengthens the need to develop media competence in the process of teaching English, since English is considered the main means of communication in the global media space.

Keywords: virtual world, electronic media, Internet, global information space, social and communicative competencies, abstract intelligence, mechanical intelligence, social intelligence.

KIRISH

Insonning jamiyatda mavjud bo'lishi muloqot jarayoni va shaxslararo konstruktiv munosabatlarni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Bu jarayon har bir shaxsda turlicha kechadi. Ijtimoiy muhitda samarali aloqa o'rnatiladigan shaxslar, odatda, ijtimoiy intellektning yuqori darajasiga ega bo'lib, mazkur psixik xususiyat insonlar o'rtasidagi munosabatlarni sifatli tashkil etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda media texnologiyalar ta'lim va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylanib, ayniqsa, yoshlarning bilish va muloqot jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Talabalar media vositalari orqali axborot oladi, bilim doirasini kengaytiradi hamda global kommunikativ makonga kirib boradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida obrazli va virtual olam talabalarning dunyoqarashida yetakchi o'rin egallamoqda. Biroq media obrazlar turlicha xarakterga ega bo'lib, ular ayrim hollarda yuzaki axborot bilan cheklansa, boshqa holatlarda borliqni chuqur anglash, tahlil qilish va ijodiy qayta talqin etishga imkon yaratadi. Ayniqsa, elektron ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotiga, xususan, talaba-yoshlarga kuchli axborotiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar oqimini kuzatish jarayonida talabalar global axborot makonining faol ishtirokchisiga aylanib, turli mediakultural muhitlarning ta'sirini boshdan kechirmoqda.

Mazkur holat ingliz tili o'qitish jarayonida mediakompetentlikni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Chunki ingliz tili global media makonining asosiy kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Talabalarning ingliz tilidagi mediamatnlarni tushunishi, tahlil qilishi, baholashi va ularga nisbatan mustaqil munosabat bildirish nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini ham ta'minlaydi. Shu bois media ta'lim zamonaviy ta'lim jarayonida uzluksiz va keng qamrovli tizim sifatida qaralib, unda pedagoglar bilan bir qatorda talabalar ham faol subyekt sifatida ishtirok etishi lozim.

Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muammosini ilmiy asoslashda intellekt tushunchasining tarkibiy jihatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaga dastlabki ilmiy yondashuvlardan biri Edvard Torndayk tomonidan 1920-yilda ilgari surilgan bo'lib, u intellektning umumiy tushunchasini uch asosiy aspektga ajratgan:

- a) abstrakt intellekt – g'oyalarni tushunish va ular bilan ongli ravishda operatsiya qilish qobiliyati;
- b) mexanik intellekt – aniq obyektlar bilan ishlash va ularni boshqarish qobiliyati;
- c) ijtimoiy intellekt – insonlarni tushunish va ular bilan munosabatlarni boshqara olish qobiliyati.

Olimning ushbu ishlari doirasida ijtimoiy intellekt tushunchasiga ilk bor ilmiy ta'rif ham berilgan. Xususan, E.Torndayk ijtimoiy intellektni “erkaklar va ayollarni, o'g'il va qizlarni tushunish hamda ular bilan munosabatlarni boshqara olish, insoniy munosabatlarda oqilona harakat qila bilish qobiliyati” sifatida izohlaydi.

Britaniyalik psixolog F.Vernon ijtimoiy intellektni yanada keng ma'noda talqin qilib, shunday yozadi: “ijtimoiy intellektga ega bo'lgan kishilar, odatda, odamlar bilan oson til topisha oladilar, ijtimoiy texnikalarga ega bo'ladilar, muloqotda erkinlikni namoyon etadilar, ijtimoiy masalalar bo'yicha muayyan bilimlarga ega bo'ladilar, guruhning boshqa a'zolaridan keladigan stimullarga sezgir bo'ladilar, shuningdek, notanish shaxslarning bir zumlik kayfiyati yoki chuqur shaxsiy xususiyatlarini anglay oladilar”.

Yu.N.Emelyanova esa ijtimoiy intellektni boshqacha yondashuv asosida izohlaydi: “subyektning subyektiv bilish imkoniyatlari sohasi, ya'ni individning o'zini va boshqalarni, ularning o'zaro munosabatlarini anglash hamda shaxslararo hodisalarni oldindan bashorat qilishga qaratilgan, tafakkur jarayonlari, affektiv reaksiyalar va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos xususiyatlariga tayanadigan barqaror qobiliyati ijtimoiy intellekt deb ataladi”.

Rossiyalik psixolog A.I.Savenkov 2018–yilda hozirgi kunga qadar ijtimoiy intellektni ko‘p omilli psixologik fenomen sifatida talqin qiluvchi yagona diskret strukturaviy modelni taklif etgan. Ushbu model, J.Guilford modeli kabi, kub shaklidagi tuzilma asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ijtimoiy intellektni tavsiflovchi uchta asosiy parametrlar guruhi negiziga qurilgan:

1. Kognitiv parametrlar – ijtimoiy bilimlar, ijtimoiy xotira va ijtimoiy intuitsiyani o‘z ichiga oladi;

2. Emotsional parametrlar – ijtimoiy ifodalilik, hamdardlik (empatiya) ko‘rsatish qobiliyati hamda o‘z–o‘zini boshqarish (self–regulyatsiya)ni qamrab oladi;

3. Xulq–atvorga oid parametrlar – ijtimoiy idrok, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ifodalaydi.

Mazkur nazariy model shaxsning ijtimoiy intellektini diagnostika qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur talqinlar ingliz tili o‘qitish jarayonida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ingliz tilidagi media makonda samarali muloqot olib borish, turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarni to‘g‘ri anglash, shuningdek, mediamatnlarda ifodalangan kayfiyat va pozitsiyalarni tahlil qilish aynan ijtimoiy intellekt rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan, ijtimoiy intellekt mediakompetentlikning psixologik poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy jamiyat oldida turgan global chaqiriqlar shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasini dolzarb etmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy intellekt va kommunikativ qobiliyatlar muhim o‘rin tutadi. Ingliz tili o‘qitish jarayonida mediakompetentlikni rivojlantirish talabalarda boshqalarni tushunish, hamdardlik bildirish, turli nuqtayi nazarlarni qabul qilish va samarali muloqot olib borish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada mediakompetentlik talabalarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishining muhim omiliga aylanadi.

Media ta’lim faqat kamera oldida ishlash, videotasvirga olish yoki montaj jarayoni bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda u ta’lim oluvchilarning, jumladan talabalarning ijtimoiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish, ya’ni ijtimoiy intellekt va mediakompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, media ta’limni ta’lim tizimiga joriy etish borasida dunyo miqyosida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2001 yilda Avstraliyada barcha maktablarda media ta’lim bo‘yicha maxsus darslar joriy etilgan bo‘lsa, bu borada dastlabki tashabbus 1999 yilda Filippin davlatida ilgari surilgan.

Media ta’limni ta’lim muassasalariga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiruvchi omillar nihoyatda ko‘p bo‘lib, ulardan ayrimlari alohida ahamiyatga ega. Avvalo, bolalar va yoshlar maktabdan tashqarida, asosan ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali juda katta hajmdagi axborotni qabul qilmoqdalar. Ko‘pincha bu axborot ularning yosh va bilish darajasiga mos kelmaydi, mazmunan murakkab yoki noto‘g‘ri talqin etilishi mumkin. Shu bois ta’lim muassasalari, jumladan ingliz tili o‘qitish jarayonida, mazkur holatlarni inobatga olishi va talabalarga axborotni tushunish hamda tanqidiy tahlil qilishda yordam berishi zarur.

Bu jarayonda o‘qituvchining roli ham sezilarli darajada kengayib, u nafaqat bilim beruvchi, balki tyutor va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. O‘qituvchilar talabalarning qiziqish doirasiga kiruvchi media va ijtimoiy masalalar bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi, ingliz tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda ularga metodik ko‘mak ko‘rsatishi muhimdir. Aynan shunday yondashuv ingliz tili o‘qitish jarayonida talabalarning mediakompetentligini izchil rivojlantirishga, ularning ijtimoiy faolligi va kommunikativ madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, media ta'limga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning ijtimoiy va kasbiy yo'nalishdagi mediakompetentligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur dasturlar talabalarni ingliz tilidagi media muhitda ijtimoiy–professional rollarni – yosh muxbirlar, fotografchilar, operatorlar, media sohasidagi tadbirlar tashkilotchilari sifatida jamoaviy faoliyatda ishtirok etishga tayyorlaydi. Media studiyalar faoliyati jarayonida talabalar jamoa bilan ishlash tajribasini egallab, turli faoliyat turlarida loyihalash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Ingliz tilidagi media loyihalarni ishlab chiqish, taqdim etish va himoya qilish studiya faoliyati doirasida ta'lim natijasi sifatida namoyon bo'lib, u talabalarning axborot–media yo'nalishidagi mustaqil ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Bu jarayon talabalarni ingliz tilida fikrni aniq ifodalash, auditoriya oldida chiqish qilish, o'z pozitsiyasini asoslab berish va jamoaviy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Media ta'limda qo'llaniladigan barcha yondashuvlar talabalarning ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Chunki media ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u talabalarga ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik va ijtimoiy sharoitlarni yaratadi, shaxsiy fazilatlarni shakllantiradi, qobiliyatlarni takomillashtiradi hamda ingliz tilidagi media mahsulotlar bilan obyektiv va mas'uliyatli ishlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni egallashga imkon beradi. Shu bilan birga, media ta'lim talabalarda voqea–hodisalarga tezkor, asosli va xolis munosabat bildirish, mustaqil va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, atrofdagilar bilan konstruktiv muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Natijada, ingliz tili o'qitish jarayonida media ta'lim elementlaridan tizimli foydalanish talabalarning nafaqat til va mediakompetentligini, balki ularning ijtimoiy faolligi, kommunikativ madaniyati va kasbiy moslashuvchanligini ham rivojlantiruvchi muhim pedagogik omilga aylanadi.

Yuqoridagi o'rganishlar va tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, talabalar media makonda qanchalik faol bo'lsalar, real hayotda shunchalik passiv bo'lib boradilar, bu esa, o'zaro muloqot qilish, jonli axborot almashish imkoniyatlarini pasayishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, ingliz tili darslarida talabalarning media vositalardan to'g'ri foydalanish va ingliz tili o'rganishda foydalanishga o'rgatish lozim.

Mediakompetentlik shaxsning media axborotni idrok etish, tahlil qilish, baholash va yaratish bilan bog'liq faoliyatini ifodalasa, ijtimoiy intellekt insonlararo munosabatlarni tushunish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijtimoiy vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini aks ettiradi.

Metapredmet yondashuv talabalarning alohida fanlar doirasidagi bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, ularning universal metakompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yondashuv doirasida mediakompetentlik talabaning axborot bilan ishlashga oid texnik ko'nikmasi sifatida emas, balki ijtimoiy–kommunikativ, metakognitiv va madaniyatlararo kompetensiyalar bilan integratsiyalashgan murakkab shaxsiy sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Metapredmet yondashuv va mediakompetentlik o'rtasidagi integratsiya, ayniqsa, ingliz tili o'qitish jarayonida samarali amalga oshiriladi. Chunki ingliz tili nafaqat lingvistik vosita, balki global media makoniga kirish, turli madaniyatlar bilan muloqot qilish va ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni tahlil etish vositasi ham hisoblanadi. Shu bois, ingliz tili ta'limi mediakompetentlikni rivojlantirish uchun qulay metapredmet maydonni yaratadi.

Metapredmet integratsiya mediakompetentlikni rivojlantirishda bir necha muhim mexanizmlar orqali namoyon bo'ladi:

1) Mazmuniy integratsiya – ingliz tili darslarida ijtimoiy, madaniy, kasbiy mazmundagi mediamatnlarning tanlanishi orqali talabaning bilim doirasi kengaytiriladi.

2) Faoliyatga yo‘naltirilgan integratsiya – media loyihalar, jamoaviy taqdimotlar, blog yoki video tayyorlash orqali mediakompetentlik amaliy faoliyatda shakllanadi.

3) Refleksiv integratsiya – talabani o‘z media faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglash va kelgusida takomillashtirish yo‘llarini belgilashi orqali ta‘minlanadi.

Mediakompetentlik va ijtimoiy intellekt o‘zaro integratsiyalashgan holda shaxsning axborot, kommunikativ va ijtimoiy faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ingliz tili o‘qitish jarayonida ushbu ikki kompetensiyani birgalikda rivojlantirish talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy mas‘uliyati, jamoada ishlash qobiliyati va kasbiy raqobatbardoshligini oshiradi. Shu jihatdan, mediakompetentlik va ijtimoiy intellektning o‘zaro ta‘siri zamonaviy ingliz tili ta‘limining muhim nazariy–metodik asoslaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mediakompetentlik va ijtimoiy intellekt bir–biridan mustaqil rivojlanuvchi hodisalar emas, balki yagona pedagogik jarayon doirasida o‘zaro ta‘sirda shakllanadigan murakkab shaxsiy sifatlar majmuasidir. Mediakompetentlik shaxsga axborot bilan ishlashning texnologik, tahliliy va refleksiv jihatlarini ta‘minlasa, ijtimoiy intellekt ushbu axborotni insoniy, madaniy va ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida talabalarda ingliz tilidagi media axborotni nafaqat texnik jihatdan tushunish, balki uni ijtimoiy ma‘noda baholash, turli nuqtayi nazarlarni hisobga olish, mas‘uliyatli axborot yaratish va samarali muloqot olib borish ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, jamoaviy media faoliyati, loyiha asosida ishlash va ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikatsiya jarayonlarida mediakompetentlik va ijtimoiy intellektning integratsiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent. 2025-yil 26-dekabr.
2. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge, UK: Polity Press, 2003. 219 p.
3. Bazalgette, C., Bevort, E. & Savino, J. L’Education aux medias dans le monde: Nouvelles orientations. Paris - London: BFI, CLEMI, UNESCO, 120 p.
4. Усов Ю.Н. Медиаобразование в России (на материале экранных искусств). Рукопись. 1995. 18 с.
5. <https://uil.unesco.org/annual-report-2002-unesco-institute-education>
6. <https://en.unesco.org/sites/default/files/uzbek.pdf/> Jurnalistikada media va axborot savodxonligi.
7. Chetty K., Wenwei L., Josie J., Shengen B. Bridging The Digital Divide: Measuring Digital Literacy, 2017.
8. Маматова Я., Сулайманова С. Узбекистан по пути развития медиаобразования. – Ташкент: “Extremum-press”, 2015.
9. Мўминова Н.С. Малака ошириш жараёнида мактабгача таълим ташкилоти тарбиячи-педагоглариининг медиакмпетентлигини ривожлантириш / Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Тошкент. – Б. 14.
10. Федоров, А.В. Медиаобразование в зарубежных странах [Текст] / А.В. Федоров – Таганрог: Изд-во Кучма, 2003. – 238 с.
11. Коновалова, Н.А. Развитие медиакультуры студентов педагогического вуза [Текст] / Н.А. Коновалова: дис. ... канд. пед. наук. – Вологда, 2004. – С. 97.
12. Федоров, А.В. Медиаобразование в зарубежных странах [Текст] / А.В. Федоров – Таганрог: Изд-во Кучма, 2003. – 238 с.

13. Протопопова, В.В. Медиакомпетентность современного педагога [Текст] / В.В. Протопопова // Высшее гуманитарное образование XXI века: проблемы и перспективы: В 2-х т. Т.1. Педагогика. Психология. – Самара: ПГСГА, 2009. – С. 285-288.

14. Цымбаленко С.Б. Дети и подростки в информационно-образовательном пространстве Москвы: Из опыта работы по реализации проекта «Развитие медиакультуры учащихся в информационно-образовательном пространстве города Москвы» / Сост. С.Б. Цымбаленко. – М.: РИЦ МГТУ им. М.А. Шолохова, 2013 г. – 156 с.